IBN DAVLAT IJODIDA USLUBIY XOSLANGAN SO‘ZLAR LEKSIKASI

Isokulov Abdullo Oblokul o‘g‘li
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi (Oriental universiteti o‘qituvchisi)
abdulloisakulov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-4775-654X

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23791040

Annotatsiya. *Maqolada Ibn Davlat devonida qo‘llangan uslubiy xoslangan leksik qatlam tahlil qilinadi. Devon matnidan olingan misollar asosida diniy-tasavvufiy atamalar, arxaik grammatik va leksik shakllar, emotsional-ekspressiv birliklar hamda leksik takrorga asoslangan vositalar alohida guruhlarga ajratilib, ularning she’riy matndagi vazifasi ochib beriladi. Tahlil natijasida shoir tilining kitobiy-an’anaviy uslubga yaqinligi, ayni paytda o‘gitnoma mazmuni tufayli tushunarlilikka va ta’sirchanlikka intilishi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *Ibn Davlat, devon, uslubiy xoslangan leksika, tasavvufiy atama, arxaizm, ekspressivlik, leksik takror, anafora.*

Аннотация. *В статье рассматривается стилистически маркированная лексика дивана Ибн Давлата. На примерах из дивана выделяются религиозно-суфийские термины, архаичные грамматические и лексические формы, эмоционально-экспрессивные единицы и лексические повторы, а также определяются их функции в поэтическом тексте. Установлено, что язык поэта тяготеет к книжно-традиционному стилю и вместе с тем, благодаря назидательному содержанию, стремится к доступности и выразительности.*

Ключевые слова: *Ибн Давлат, диван, стилистически маркированная лексика, суфийская терминология, архаизмы, экспрессивность, лексический повтор, анафора.*

Abstract. *The article analyzes the stylistically marked vocabulary of Ibn Davlat’s divan. On the basis of examples from the divan, religious-Sufi terms, archaic grammatical and lexical forms, emotional-expressive units and lexical repetition are classified, and their functions in the poetic text are described. The study shows that the poet’s language is close to the bookish traditional style and, owing to the didactic content of the work, also strives for clarity and expressiveness.*

Keywords: *Ibn Davlat, divan, stylistically marked vocabulary, Sufi terminology, archaisms, expressiveness, lexical repetition, anaphora.*

Badiiy matnning lingvistik tahlili hozirgi o‘zbek tilshunosligida jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir. Mustaqillik yillarida badiiy asar tilini, ijodkor uslubini o‘rganishga e’tibor kuchayib, badiiy matnni tadqiq etishning yangi metodlarini shakllantiradi [1; 5]. Bunday tadqiqotlarda ijodkorning so‘z tanlashdagi o‘ziga xosligi, til birliklarini estetik maqsadga bo‘ysundirish mahorati va tilning vazifaviy imkoniyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mumtoz she’riyatimizning diniy-ta’limiy mazmundagi namunalarida so‘zning ma’nosi bilan bir qatorda uning uslubiy bo‘yog‘i, ya’ni qaysi nutq qatlamiga mansubligi ham muhim o‘rin tutadi.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

Maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ijod qilgan, xalq orasida diniy-tasavvufiy ruhdagi g‘azallari bilan tanilgan Saidmuhammad Yo‘ldosh ibn Davlat devoni tahlil etiladi. Manbalarda shoirning 11 mingdan ortiq misradan iborat she’riy merosi bizgacha yetib kelgani qayd etiladi [2; 6]. Shoir o‘z taxallusi bilan birga ismini ham tilga oladi:

Ibn Davlat ojiz-u bechoraga aylang madad,
Qutbi olam Urgutiy eshon erur piri xudo. [3; 15]

Shoir tilini o‘rganish uning yashagan davridagi ijodiy muhit hamda mumtoz adabiy til an’analarining XIX-XX asr bo‘sag‘asidagi holati haqida tasavvur beradi.

Badiiy asar tili va uslubini o‘rganish obyekti borasida olimlar turlicha fikr bildirgan. V. V. Vinogradov stilistika tadqiqotida kamida uch yo‘nalishni farqlash zarurligini ta’kidlaydi: struktural stilistika, nutq stilistikasi va badiiy adabiyot stilistikasi [4; 5]. Bundan ko‘rinadiki, so‘zning uslubiy jihati leksik stilistikaning bevosita o‘rganish predmetidir. Badiiy uslubning o‘ziga xosligi shundaki, u boshqa uslublarga xos vositalarni ham o‘z tarkibiga singdira oladi. Shu sababli she’riy matnda ilmiy-diniy atama ham, so‘zlashuvga xos undov ham, eskirgan shakl ham estetik vazifa bajarishi mumkin.

Maqolada uslubiy xoslangan leksika deganda neytral so‘zlardan farqli ravishda muayyan nutq uslubi, davr yoki ifoda maqsadiga bog‘langan, o‘ziga xos uslubiy bo‘yoqqa ega til birliklari tushuniladi. Devondagi uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar mavzuviy-vazifaviy jihatdan to‘rt guruhga ajratildi: diniy-tasavvufiy leksika, arxaik shakllar va eskirgan leksika, emotsional-ekspressiv birliklar hamda leksik takror.

1. Diniy-tasavvufiy leksika

Devon leksikasining eng salmoqli qatlamini diniy-tasavvufiy birliklar tashkil etadi. Ularni ma’noviy-vazifaviy jihatdan to‘rt kichik guruhga ajratish mumkin.

a) Alloh ismlari va sifatlarini bildiruvchi birliklar. Shoir Yaratganga murojaat qilganda Qodir, G‘afur, G‘affor, Karimi korsoz, Hayyu Qayyum kabi nomlarni, shuningdek Zuljalol, loyazol, Fotihul-abvob, G‘iyosul-mustag‘ays singari arabcha birikmalarni qo‘llaydi. Masalan:

Qodiro, qudrat bilan qilding bu Odamni bino,
Obi rahmat birla yuvg‘il, botinim topsun jilo. [3; 8]
Bandangga sabru qanoat ber, Xudoyi Zuljalol,
Aylagil go‘yo tilim, hamdingni aytay bemalol. [3; 107]

Bunday nomlarning ko‘pchiligi murojaat ohangida - “Iloho”, “Qodiro”, “Podshoho”, “Rabbano” shaklida keladi. So‘z oxiridagi cho‘ziq - o unlisi so‘zlashuv nutqiga xos emas; u munojot uslubining belgisi sifatida matnga tantanavorlik va ixlos ruhini bag‘ishlaydi. Devonda faqat “iloho” undovi taxminan 175 marta, Ibn Davlat taxallusi esa 200 martadan ko‘p takrorlanadi. Bu ko‘rsatkichlar asarning asosan munojot va nasihat mazmunida yaratilganini ko‘rsatadi.

b) Oxirat va qiyomat bilan bog‘liq atamalar. Munkar va Nakir, ro‘zi jazo, mahshar, sirot ko‘prigi, Havzi Kavsar, Salsabil, Jannatul-ma’vo kabi birliklar kundalik nutqda deyarli ishlatilmaydi va kitobiy uslub qatlamiga kiradi. Ular o‘quvchida diniy tasavvur uyg‘otish, oxirat manzarasini jonlantirish vazifasini bajaradi:

Munkaru Nakir kelib qilsa savol mandin agar,

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

Jori ayla “Rabbim Olloh”ni tilimga, Rabbano.
Ul Sirot otlig‘ guzargohda inoyat aylag‘il,
Hurmati “Shamsuz-ziyo” qilma u kun lag‘zishi po.
Havzi Kavsar sharbatidin bandani shodob et,
Boqi bo‘lg‘aylar u ko‘kda Choriyori bosafo [3; 12].

c) Tasavvufiy va fiqhiy atamalar. Shariat, tariqat, ma’rifat, zikr, nafs, uzlat, vahdat, tajalli, avliyo, pir kabi so‘zlar devonda tez-tez uchraydi. Shoir tasavvuf ilmining maxsus terminologiyasidan she’riy misra ichida ham foydalanadi. Masalan, tasavvufdagi “besh unsur” tushunchasi bir baytda sanab o‘tiladi:

Qalbu ruh sir, xafi, axfo erur rohi tariq,
Besh latifa jumla rohi mashoyixdur bu yo‘l. [3; 160]

Shariat va tariqat tushunchalari esa o‘gitnoma ohangida, buyruq shaklida beriladi:

Shariat yo‘lida yurg‘il, tariqat korini qilg‘il,
Xudoni amrini qil ham tariqi Mustafo ayla. [3; 11]

Fiqhiy atamalar – farz, vojib, sunnat, mustahab – bir misrada ketma-ket keltirilib, amaliy ko‘rsatma vazifasini bajaradi:

Farzu vojib, sunnatu ham mustahabg‘a qil amal,
Bul amalni aylasang, ummat degay shod Rasul. [3; 160]

d) Didaktik tasnif atamalari. Muxammaslar bo‘limiga yozilgan kirish qismida shoir yomon va ezgu xulqlarni uch arabcha atama bilan tasniflaydi: bandalarni halok qiladigan 62 ta yomon fe’lni muhlakot, ikki olamda najot keltiradigan 62 ta ezgu fe’lni munjiyot, martabani oshiradigan amallarni esa darajot deb ataydi. Muallifning o‘zi shunday yozadi: “Oltmish ikki fe’li nek bordurki ani munjiyot derlar, ya’ni bandalar ul amallarni qilsalar, ikki olamda najot toparlar” [3;170].

Demak, bu yerda arabcha atamalar she’r mazmunini tartibga soluvchi uslubiy-kompozitsion vosita vazifasini ham bajaradi.

1-jadval. Diniy-tasavvufiy birliklar

Birlik	Qo‘llanilishi
Ibni Davlat	213
Iloho	175
Zikr	108
Tavba	99
Shariat	62
Qiyomat	59
Tariqat	58
Nafs	44
Aavliyo	43
Mahshar	42

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

2. Arxaik shakllar va eskirgan leksika

Badiiy matnda so‘zlar ikki xil usulda iste’moldan chiqadi. Ifodalagan tushunchasi bilan birga iste’moldan chiqqan tarixiy so‘zlar (istorizmlar) va tushunchasi saqlangan holda boshqa so‘z bilan almashgan (arxaizmlar) Ibn Davlat devonida ikkala turga xos bo‘lgan misollar uchraydi.

a) Grammatik arxaizmlar. Devon tilining eng ko‘zga tashlanuvchi xususiyati – eski turkiy va chig‘atoy adabiy tili an’anasidagi shakllarning barqarorligidir. Quyidagi hodisalar shular jumlasidandir.

Shaxs va ko‘rsatish olmoshlarining eski shakllari (man, san, manga, sanga, mandin, sandin, anga, alar; bul, ul):

Sandin o‘zga kimga arz etsun bu qul hojatini,
Ko‘z tutar ummed etib dargohinga aylab raho. [3; 6]
Bul jahonda bul faqirni do‘stlaringga hamdam et,
Ro‘zi mahsharda shafi’im qil Muhammad Mustafo. [3; 3]

Hozirgi adabiy tilda iste’moldan chiqayotgan ayrim so‘z va qo‘shimchalar esa shevalarda saqlanib qolishi mumkin; sheva milliy tilning kichik hududiy qismi sifatida tavsiflanadi [6; 5]. Dialektologlar shevalarni adabiy til uchun zarur imkoniyatlarga ega manba deb hisoblaydi [7; 152]. Shu sababli devon tilidagi shakllarning qaysi biri sof kitobiy, qaysi biri hududiy nutqqa yaqinligini aniqlash alohida dialektologik tekshiruvni talab etadi.

b) Leksik arxaizmlar va istorizmlar. Muharrirlar lug‘atiga kiritilgan nazr, takya, tojir, sayyid, g‘ulom, g‘ilmon kabi so‘zlar ijtimoiy-tarixiy turmush bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ko‘pchiligi bugungi kunda o‘z tushunchasi bilan birga muomaladan chiqqan [3; lug‘at]. Masalan, lug‘atda nazr eshon yoki pirga murshid tomonidan beriladigan pul yoki narsa, takya bir kishilik hujra, tojir savdogar ma’nosida izohlangan. “Oqsoqol”, “axiy mullo” kabi birliklar ham devonda eski ijtimoiy tabaqa va muhitni eslatadi:

Emdi keldi dargohingga bandayi yuzi qaro,
Oqsoqol, yuzi qarodur bandayi noma siyoh. [3; 14]
Qabul et, yo Iloho, Ibni Davlatning munojotin,
Duoyi xayr qilsunlar o‘qusa har axiy mullo. [3; 10]

Umuman olganda, Ibn Davlat devonidagi uslubiy xoslangan leksika bir necha qatlamdan iborat bo‘lib, ularning har biri asarning ta’limiy-tasavvufiy mazmuniga xizmat qiladi. Devon leksikasining asosiy qismi bo‘lgan arab-fors tiliga oid diniy-tasavvufiy birliklar tashkil etadi. Bu esa shoir ijodiga xos bo’lgan individual uslubni ko’rsatish bilan birga, uning ijodiy yo’nalishini ham ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidov A. Murod Muhammad Do‘st asarlari lingvopoetikasi. – Toshkent, 2021.
2. Xurramova Z. XX asr Samarqand adabiy harakatchiligi mumtoz adabiy vakillari ijodiy merosi (1920–1990-yillar). – Samarqand: “Mahorat”, 2022. – 220 b.
3. Saidmuhammad Yo‘ldosh ibn Davlat. Devon. – Toshkent: “Tamaddun”, 2019. – 208 b.
4. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: Изд-во АН СССР, 1963.

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.

6. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016.

7. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 152.

8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zMU, 2002.

9. To‘ychiyev Y. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.

10. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. – Toshkent: Fan, 2007.

© **Qo‘qon davlat universiteti** | **O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi**
© **“Smart Quill Publishing” nashriyoti** | **www.smartquillpublishing.uz**